

O'QUVCHILARDA KREATIV FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH IJTIMOY-PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Qo'chqarova Mahmuda Adhamjonovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Abdurahimova Odinaxon Muhammadali qizi

Farg'ona davlat universiteti II kurs magistranti

To'xtamatova Mahliyo Tursinali qizi

Farg'ona davlat universiteti II kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kreativlik tushunchasi, bu tushunchaning boshlang'ich ta'lif tizimidagi ahamiyati, kreativ faolliklarini shakllantirishni pedagogik nuqtai nazardan ta'riflanishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, refleksiv faoliyat, ijodiy qobiliyatlar, paradigm.

Абстрактный: В данной статье представлена информация о понятии творчества, значении этого понятия в системе начального образования, а также описание формирования творческой деятельности с педагогической точки зрения.

Ключевые слова: креативность, рефлексивная деятельность, творческие способности, парадигма.

Abstract. This article provides information about the concept of creativity, the importance of this concept in the primary education system, and the description of the formation of creative activities from a pedagogical point of view.

Key words: creativity, reflexive activity, creative abilities, paradigm.

Hozirgi zamon ta'lif jarayoni sub'ektlarning faoliyat ko'rsatish vositalarini yangilashni taqozo qilmoqda. Bunday yangilanish o'qituvchi, o'quvchi hamda maktab ta'lmini boshqaruvchi sub'ektlar faoliyatiga aloqadordir. Mazkur vositalar sirasiga darsliklar, o'quv adabiyotlari, kompyuter texnologiyalari, o'qitishning innovatsion usullarini kiritish mumkin. Bu o'quvchining kreativ faollik ko'rsatishini ta'minlash, uni frontal topshiriqlardan ozod qilish, mustaqil fikrashi uchun keng yo'l ochish, yangiliklar yaratishiga imkoniyat berish, o'zi uchun individual ta'lif yo'nalishini tanlashiga yo'l ochish demakdir.

Insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri jamiyat taraqqiyotidir. SHaxsning ijodiy jihatdan o'z-o'zini namoyon qilishi, uning betakrorligi insonparvarlik ahamiyatiga ega. U inson hayotining

mazmun-mohiyati, uning ichki quvvatlarining namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir. Faylasuflarning ta'kidlashicha, insonning hayoti uning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Inson o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga faoliik tufayli erishadi. Kreativ, ya'ni kreativ faoliik keng ko'lamli tushuncha bo'lib, shaxs bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotini ham ta'minlaydi. Insonning ijodiy, yaratuvchilik faolligi uning kundalik hayotida namoyon bo'ladi. Jamiyat hayotida ijod ilm-fan va san'atda yangi topilmalar, ixtirolarning vujudga kelishini ta'minlaydi. Buning natijasida yangi ijtimoiy dasturlar vujudga keladi.

Kreativlik (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va echimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati¹³.

Kreativ faoliik yangi narsalarni iste'molga kiritish, vujudga kelgan ziddiyatli muammolarning echimlarini topish, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf qilish, mavjud xulq-atvor qoliplaridan voz kechish, tafakkur va idrok etish, o'z-o'zini o'zgartirish, takomillashtirishga tayyor bo'lishni taqozo qiladi. Kerativ faoliik bu dunyoga nimanidir olib kirish demak. Uning asosiy me'yori shaxs tomonidan yaratilgan ijod namunalarining betakrorligidir. U o'quvchining o'ziga xosligi va kreativ qobiliyatlarini namoyon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi:bu pedagog va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur", - degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi.¹⁴

Ta'lim jarayonining muhim belgisi uning shaxsga yo'naltirilganligidir. Bugungi kunda o'quv jarayonida shaxsning qanday o'rin egallashi lozimligini nazariy jihatdan asoslash vazifasi yanada dolzarblashmoqda.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kreativ faoliyklarini shakllantirishga bo'lган ehtiyoj vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi ushbu mavzu dolzarbligining yana bir ko'rinishi hisoblanadi. Aksariyat pedagoglar va psixologlarning ishlarida ta'lim puxta o'ylangan, mustaqil loyihalashtirilgan, o'zining ichki, muayyan darajada

¹³ Pedagogika ensiklopediya II jild 198 b.

¹⁴ Mirziyoyev Sh M "Taqpidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'zbekiston.Toshkent, 2017. 45-bet.

yopiq, pedagogik faoliyat tabiatiga mos tarzda tashkil etilgan jarayon sifatida talqin etiladi. Jumladan, R.Safarova, M.Maxmudov, O.Roziqov, B.Adizov, E.G'oziev, M.Davletshin, M.Maxmutov, E.V.Bondarevskaya, M.V.Klarin, G.A.Kovalev, I.A.Kolesnikova, N.A.Mitina kabilarning ishlarida didaktik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat an'anaviy faoliyatdan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Mazkur faoliyat mustaqil bilim olishga yo'naltirilganligi, o'quvchining moyilligiga asoslanganligi, muayyan maqsadga qaratilganligi, ta'limning aniq mazmun va o'quv jarayonining muayyan didaktik tavsifga egaligida o'z ifodasini topadi.

O'quvchilarda refleksiv faoliyatni rivojlantirishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, ularda kreativ faollikni tarkib toptirishdan iborat. Bu esa o'quv faoliyatining predmeti, maqsad va vazifalari hamda natijalarida aks etishi kerak.

SHaxs tushunchasi *ijtimoiy-ma'naviy*, axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan odamni anglatuvchi tushuncha. Bu tushuncha barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z predmeti nuqtai nazaridan qo'llanadi, shu asosda xilma-xil talqin etiladi. SHaxs biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinadigan hodisa¹⁵.

SHaxs o'zida insonga xos bo'lgan barcha ijtimoiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Bunday sifatlar oilaviy hayot tarzi va ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Mazkur sifatlar shaxsning kreativ hamda ijtimoiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Har bir shaxs o'zining ijodiyligi, ijtimoiy faolligi orqali rivojlanadi va muvaffaqiyatlarga erishadi, o'zligini namoyon qiladi. Kreativ, ya'ni kreativ faollik o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantiriladi. Bunda o'quvchilarning asosiy layoqati uning namoyon bo'lish shakli, voqeahodisalarning mohiyatini anglash, tahlil qilish, narsalarning tabiatini bilish jarayonida rivojlanadi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, o'quvchilarning tahliliy layoqati pedagogik hamda hayotiy jarayonlarda namoyon bo'luvchi va uning fikrlash tarzini muntazam rivojlantiruvchi faoliyatdir. Bunday vaziyatlarda o'quvchilarning ongi bilish jarayonlarida uni muvaffaqiyatga undovchi, faollashtiruvchi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mas'uliyatlilik, kreativ faollik ko'nikmalari tarkib topadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikning samarali

1. ¹⁵ Pedagogika: ensiklopediya 3-jild tuzuvchilar: jamoa. T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 322 b

shakllanishi uchun ijtimoiy jihatdan barqaror nuqtai-nazarga ega bo'lgan ijobjiy xarakterdagi ijodkor shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Atrof-muhit va yaratilgan shart-sharoitlar o'quvchilarda kreativ faollikni shakllantirishda alohida o'rinni egallaydi. Muhit ijodkor shaxsning yaratilishi va shakllanishida o'ziga xos o'rinni tutadi. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faoliyatni izchil tarzda shakllantirishning muhim omili hisoblanib, ushbu jarayonda yangi rivojlanish vaziyatlari hosil bo'ladi.

Ijtimoiy vaziyatlarda o'quvchilarda kreativ faollikni shakllanishida muhim omil sifatida oilaviy muhit o'z o'rniga ega. Jumladan, bolalarda ijodkorlikni tarbiyalashga etarli darajada e'tibor qaratish; kreativ faoliyatning etakchi omili sifatida ijodkorlik motivlarini shakllantirish; ijodkorlikning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratish, bir qolipdagi fikrlash tarzidan voz kechishlariga ko'maklashish; o'quvchilarning kreativ faolliklarini hissiy, psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash; ota-onalarning kreativlik sifatlarini namoyon qilishlari hamda ushbu jarayonda bolalarning ham ularga o'xshashlari uchun qulay vaziyatlarni yaratishlari; ota-onalarning o'z farzandlarining kreativ faoliyk ko'rsatishlariga umid qilishlari, ularning yutuqlariga erishishlari, muvaffaqiyat qozonishlarini ta'minlashlari talab etiladi.

O'qituvchilar va ota-onalarning o'quvchilar ijodiy faoliyati natijalarini qo'llab-quvvatlashlari, ularning kreativ faoliyatiga nisbatan ijobjiy munosabatda bo'lishlari yakuniy natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat hollarda ijodkor o'quvchilarning yumorni his qilishlari, temperament tiplarining yaqqol namoyon bo'lishi o'qituvchilar va ota-onalarning ularga nisbatan salbiy, ba'zan esa e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lishlari sabab bo'ladi. Buning natijasida esa ulardagagi kreativlik sifatlari so'na boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish uchun birinchi navbatda ularni zarur topshiriqlar bilan qurollantirish, ota-onalar va o'qituvchilarni kreativ faoliyk borasidagi pedagogik-psixologik bilimlardan xabardor qilish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarda kreativ faollikning shakllanishiga bir qator holatlar to'sqinlik qiladi. Jumladan, ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlardagi tarangliklar, muloqotdagi to'sqinliklar, o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'ya olmaslik, intellektning rivojlanishidagi ziddiyatlar, boladagi kreativlikni to'liq his qilmaslik kabilalar. Bunday vaziyatlarda o'qituvchilar ham ota-onalar ham bolaning irlisyatidagi o'ziga xoslikni unutmaslik kerak.

Xulosa qilib aytsak, refleksiv faoliyat fikriy-ijodiy, tanlovga asoslangan, mas'uliyatlilik, mustaqillik kabilarni shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi

sifatida e'tirof etadi. O'quv faoliyatining asosiy natijalari ta'lim mazmuni va o'quv jarayonining tarkibiy qismalarida o'z ifodasini topadi. Bunday sharoitda o'quvchilarning o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi mazkur mazmun sifat jihatdan yangi mohiyat kasb etganligi uchun ham ortib bormoqda. Chunki kreativ faollik ham ta'lim mazmuni, ham o'quvchi shaxsining tajribasini boyituvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shaxsning kreativ faolligi uning o'ziga xos imkoniyatlari sifatida talqin etiladi. Shu bilan bir qatorda, kreativ faollik xulq-atvor ko'rinishlarini ifodalovchi model sifatida ham namoyon bo'ladi. O'quvchilarda kreativ faollikning rivojlanishi yangi paradigma doirasida jadallahadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh M "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'zbekiston.Toshkent, 2017. 45-bet.
2. Pedagogika ensiklopediyasi 2-jild 198 b.
3. Pedagogika: ensiklopediya 3-jild tuzuvchilar: jamoa. T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 322 b
4. Yo'ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari:-T.: "Tarbiyachi", 2004 y.
- 5.R.A.Mavlonova Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O'quv qo'llanma. T.: "G'.G'ulom", 156-bet .